

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MASOFAVIY AUDITNI TASHKIL ETISH ZARURIYATI

Obidov Abrorbek Olimjon o'g'li

"Xududgazta'minot" AJning ichki audit xizmati rahbari

abror-obidov@mail.ru

Masofaviy audit — bu auditorlik jarayonlarini mijozning joylashuv hududidan tashqarida, raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirishni nazarda tutuvchi innovatsion audit shaklidir. Ushbu usulda auditorlardan yuqori darajadagi kasbiy salohiyatni, axborot texnologiyalari bilan ishslash qobiliyatini, keng qamrovli axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini talab etadi. Ayniqsa, masofaviy sharoitda risklarni aniqlash, IT-muhitni nazorat qilish va yirik ma'lumotlar (big data) bilan ishslash orqali tahlil qilish ko'nikmalari dolzARB hisoblanad.

Masofaviy audit o'zining ko'plab qulayliklariga ega bo'lishiga qaramay, bu yondashuv audit sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ayrim muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Jumladan, auditorning mijoz bilan bevosita jismoniy muloqoti cheklangani sababli audit sifatiga bo'lgan ishonch darajasi pasayishi mumkin. Ayniqsa, bu holat auditorlarning ijtimoiy hayotiga, ishda bosimni his qilishlariga va ish-hayot muvozanatining buzilishiga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ish va shaxsiy hayot muvozanatining yetarli darajada bo'lmashligi audit sifati va kasbiy faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa stress va kasbiy charchoqqa olib keladi.

Shunga qaramay, texnologik rivojlanish ushbu yondashuvning sezilarli afzalliklarini yuzaga chiqaradi. Xususan, bulutli hisoblash texnologiyalaridan foydalanish tez kengayish imkoniyati, xizmatlar masshtabini moslashuvchan oshirish, past texnik xarajatlar, minimal kapital sarmoya va joydan mustaqil xizmatga kirish kabi yutuqlarni beradi. Bu esa auditorlik ishining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Texnologiyalarga kirish imkoniyatining oshib borayotgani masofaviy auditga bo'lgan qiziqishni orttirmoqda. Auditorlar global darajada muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lib, axborot va ma'lumotlarga tezkor kirishni ta'minlashmoqda. Bu o'zgarishlar ish muhitining yangilanishi, xarajatlarni optimallashtirish va pandemiyadan keyingi ish uslublarining transformatsiyasiga olib kelmoqda. Shu sababli, ushbu holatlarni chuqur ilmiy tadqiqotlar asosida o'rghanish dolzARB ahamiyatga ega, chunki audit natijalari va ularning sifati mijoz va auditorlar o'rtasidagi bevosita yoki bilvosita hamkorlik darajasiga bevosita bog'liqidir. Bundan tashqari, bulutli texnologiyalar xizmatini ko'rsatuvchi provayderlar (CSP — Cloud Service Providers) resurslardan yuqori darajada foydalanishga erishib, energiya sarfini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Bu esa nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ekologik nuqtayi nazardan ham foydali bo'lib, audit jarayonlarining barqarorlikka moslashishini ta'minlaydi.

So'nggi yillarda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, global pandemianing mehnat bozoriga ta'siri va raqamli infratuzilmalarning takomillashuvi tufayli masofaviy ish faoliyati, jumladan, masofaviy audit keng tarqalmoqda. Bu jarayon auditorlarning nafaqat ish uslubiga, balki ularning kundalik turmush tarziga, ijtimoiy aloqalari va psixologik farovonligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Masofaviy audit faoliyatini

auditorlarning ijtimoiy hayoti kontekstida tahlil qilish, bu sohaga oid qarorlar qabul qilishda muhim metodologik yondashuvlardan biridir.

Sorensen va Ortegren (2021) olib borgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, auditor va mijoz o‘rtasidagi ijtimoiy aloqa darajasi audit sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ular o‘z izlanishlarida mijoz bilan kuchli ijtimoiy bog‘liqlik auditorlarda yuqori darajadagi professional shubhani (skeptitsizm) shakllantirishini aniqlaganlar. Professional shubha esa auditorlik faoliyatida xatolarni aniqlash, xolislikni saqlash va mustahkam xulosalar chiqarishda asosiy mezonlardan biridir. Demak, yuzma-yuz muloqotning yo‘qligi yoki cheklanishi nafaqat kasbiy munosabatlarga, balki audit sifatining o‘ziga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Boshqa bir tomondan, Lorentzon va boshqalar (2024) masofaviy auditning ijobiy jihatlariga e’tibor qaratib, bu uslub auditorlarga avtonomiya, moslashuvchan ish grafigi va vaqt jihatidan samaradorlik baxsh etganini ta’kidlaydilar. Ayniqlisa, ishlash va yashash hayotidagi muvozanatni saqlash nuqtayi nazaridan bu jihatlar auditorlar uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Masofaviy ish tufayli auditorlar o‘z oilasi bilan ko‘proq vaqt o‘tkaza oladi, stress darajasi kamayadi, umumiy farovonlik ortadi. Ammo bu imkoniyatlar bilan birga auditor va mijoz o‘rtasida yuzaga kelgan psixologik masofa, ijtimoiy o‘zarot sirlarning kamayishi auditorlik tekshiruvlarida professional shubhaning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, audit sifatini pasaytiradi.

Pandemiya davrida masofaviy ish rejimining auditorlarga qanday ta’sir qilganligini ko‘rsatish uchun Loscalzo (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari muhim. Unga ko‘ra, ish joyiga borish uchun ketadigan vaqtdan qutulish, tanaffuslarni moslashtirish imkoniyati mahsuldorlikni oshirgan. Auditorlar o‘z ish vaqtini nisbatan mustaqil tarzda boshqarishga o‘rganib borishgan. Biroq bu imkoniyatlar ortida yashirin xavf omillari ham mavjud.

Lindström va Flou (2021) tadqiqotlarida aksariyat auditorlar kuniga 12–14 soatgacha ishlaganliklarini bildirgan. Bu esa masofaviy ish rejimi sharoitida mehnat qonunchiligi va normalarining buzilishi, xodimlar huquqlarining chetlab o‘tilishi holatlarini yuzaga keltirgan. Eales va boshqalar (2021) tomonidan olib borilgan suhbatlarda 45% auditorlar ish vaqtini me’yordan oshib ketganini aytganlar. Shuningdek, ish vaqtining qat’iy chegaralanmasligi, tanaffus va ovqatlanish vaqtlarining bekor qilinishi hayot sifati va oilaviy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin.

Biroq shunga qaramasdan, o‘tkazilgan intervyular auditorlarning masofaviy ishga nisbatan ijobiy munosabatini ham ko‘rsatgan. Ular bu tizimning moslashuvchanligi, transport xarajatlarining yo‘qligi va vaqtini tejash imkoniyatini yuqori baholaganlar. Lorentzon va boshqalar (2024) tadqiqotida ham shunday natijalar qayd etilgan bo‘lib, auditorlar o‘z vaqtini mustaqil rejalashtirishni qadrlashlari aniqlangan.

Shunga qaramay, ushbu tadqiqotlarning ba’zilarida metodologik cheklovlar mavjud. Masalan, Lorentzon va boshqalar o‘z tadqiqotlarida asosan tajribali auditorlar – boshqaruvi

darajasidagi xodimlarni o‘rganishgan, junior (yangi) auditorlarning fikrlari kamroq hisobga olingan. Bu esa natijalarni umumlashtirishda ehtiyyotkorlikni talab qiladi. Jinsiy omil, oilaviy holat kabi boshqa ijtimoiy faktorlar ham hisobga olinmagan. Sorensen va Ortegren (2021) tadqiqoti esa faqat "Big 4" auditorlik firmalarining vakillari bilan o‘tkazilgan bo‘lib, bu natijalarni kichik yoki o‘rta auditorlik kompaniyalariga tatbiq qilish imkonini cheklaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, masofaviy audit nafaqat auditorlik jarayonlariga, balki inson omiliga, ya’ni auditorlarning ruhiy holati, ijtimoiy aloqalari va hayotiy muvozanatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ushbu masala faqat texnik yoki boshqaruv yondashuvidan emas, balki ijtimoiy va psixologik nuqtayi nazardan ham chuqur o‘rganilishi zarur.

Xulosa sifatida, masofaviy audit — zamonaviy texnologiyalar natijasi bo‘lib, ko‘plab afzalliklarga ega: moslashuvchan ish rejimi, avtonomiya, vaqt va transport xarajatlarining qisqarishi. Shu bilan birga, bu ish usuli auditor va mijoz o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarni cheklashi, professional shubhaning pasayishiga olib kelishi, mehnat qonunchiligi buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ilmiy tadqiqotlar bu jarayonning auditorlar ijtimoiy hayotiga ko‘rsatadigan ta’sirini har tomonlama yoritgan bo‘lsa-da, mavjud natijalar ayrim guruh auditorlariga nisbatan umumlashtirilgan. Shu sababli, kelgusida masofaviy auditning turli kontekstlardagi ta’siri, xususan, yosh, jins, ish tajribasi va milliy madaniyat kabi omillar nuqtayi nazaridan yana-da chuqurroq o‘rganilishi lozim. Audit amaliyoti va siyosatini ishlab chiqishda bu ijtimoiy omillar inobatga olinishi shart deb o’ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Lynn Fountain Leading the Internal Audit Function (Internal Audit and IT Audit), 2015 – 293 pg.
2. Ерофеева В.А., Пискунов В.А., Битюкова Т.А. Аудит. – М.: Юрайт, Высшее образование, 2010. – с. 75.
3. Norman Marks World-Class Internal Audit: Tales from my Journey, 2014 – 244 pg.
4. Paul J. Sobel, Urton L. Anderson, Michael J. Head, Sridhar Ramamoorti, Mark Salamasick, Cris Riddle Internal Auditing: Assurance & Advisory Services, Third Edition 3rd Edition, 2013 – 594 pg.
5. <http://www.aasb.com> International Auditing and Assurance Standards Board.
6. <http://uzaudit.uz/> Ўзбекистон Аудиторлар Палатаси расмий сайти
7. <https://global.theiia.org> – Ички аудиторлар институтининг расмий веб сайти маълумотлари